

YASHIL IQTISODIYOT – BARQAROR IQTISODIY O‘SHISHNING MUHUM OMILI SIFATIDA

GREEN ECONOMY AS A KEY FACTOR FOR SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

¹Ibodullayev Abror Axrorovich,
²Umaraliyev Asrorbek Abdurashidovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD., ²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Soliqlar va budjet hisobi fakulteti talabasi.
G-mail: asrorbekumaraliyev80@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda yashil iqtisodiyotning roli tadqiq etilgan. Yashil iqtisodiyot – atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi barqaror rivojlanish modeli sifatida – O‘zbekiston sharoitida qanday imkoniyatlarni keltirib chiqarishi muhokama qilingan. Tadqiqotda, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, hamda yashil investitsiyalar orqali YaIM o‘shish sur‘atlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sohadagi institutsional, moliyaviy va texnologik cheklovlar, hamda yashil o‘zgarishlarga moslashishdagi murakkabliklar asosiy tahdidlar sifatida yoritilgan. Maqolada iqtisodiy siyosatga oid tavsiyalar ham berilib, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘shishiga erishish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Eng. - This article provides a comprehensive analysis of the impact of the green economy concept on the Gross Domestic Product (GDP) of Uzbekistan. The green economy, as a sustainable development model that ensures economic growth while preserving the environment and is examined in terms of the opportunities and challenges it presents in the context of Uzbekistan. The study explores the prospects of positively influencing GDP growth through the introduction of environmentally friendly technologies, the use of renewable energy sources and the attraction of green investments. Moreover, the article highlights key constraints such as institutional, financial, and technological limitations, as well as the complexities involved in adapting to green transitions. Policy recommendations are also provided, outlining strategies for achieving long-term sustainable economic growth in the country through the development of a green economy.

Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ *yashil iqtisodiyot, ekologiya, yalpi ichki mahsulot, davlat budjeti, sanoat, ishlab chiqarish, iqtisodiy rivojlanish.*
❖ *green economy, ecology, gross domestic product, state budget, industry, production, economic development.*

Kirish.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda global iqlim o‘zgarishlari, ekologik muammolarning keskinlashuvi hamda tabiiy resurslardan

foydalanishdagi beparvolik butun dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanishni qayta ko‘rib chiqishga undamoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi

yildan-yilga dolzarb tus olmoqda. Yashil iqtisodiyot bu – atrof-muhitga zarar yetkazmasdan va resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy model bo'lib, u ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va ijtimoiy adolatni o'z ichiga oladi. O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikka erishish, balki iqtisodiyotning turli sohalarida raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va xalqaro bozorga chiqishda yangi imkoniyatlarni vujudga keltirish vositasi sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi qaror qabul qilindi [1]. Bu qaror mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xavflarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish ulushini ko'paytirish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi. Shu bilan birgalikda, yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga ta'sirini ham har tomonlama tahlil qilish zarur. YaIM har bir mamlakatda iqtisodiy o'sish darajasini o'lchovchi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni O'zbekistonning YaIM tarkibiy tuzilishiga, sohalar kesimidagi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlariga, eksport salohiyatiga, investitsiyalar oqimiga va bandlik darajasiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning YaIMga ijobiy va salbiy ta'sirlari o'rganiladi. Shu jumladan, qanday imkoniyatlar (masalan, yangi texnologiyalar, energiya samaradorligi, xorijiy investitsiyalar jalb etish) yuzaga kelishi va qanday tahdidlar (kadrlar malakasining yetishmasligi, dastlabki sarmoyaviy xarajatlar, texnologik transformatsiya xavflari) yuz berishi

mumkinligi tahlil qilinadi. Maqola O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda yashil iqtisodiyotning o'rni va istiqbollarni chuqur yoritib berishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

L. Georgesonning ta'kidlashicha, yashil iqtisodiyot kelajak iqtisodiy modelining eng asosiy poydevoridir. Uning fikriga ko'ra, barqaror rivojlanish faqat tabiat resurslarining haqiqiy iqtisodiy qiymatini to'g'ri baholash va ulardan oqilona foydalanish orqali amalga oshadi. Sukhdev yashil iqtisodiyotni "atmosfera, suv va biologik xilma-xillikni asrash bilan birga iqtisodiy o'sish imkonini beruvchi yagona yo'l" deb baholaydi [2]. Shuningdek, u ekologik barqarorlikni istisnosiz barcha davlatlar uchun strategik ustuvorlik sifatida ko'rish zarurligini ta'kidlaydi.

J. Fosterning fikricha, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashni iqtisodiyotdan ajratib bo'lmaydi, aksincha iqtisodiy siyosatning markaziga aylantirish kerak. U global miqyosda "nol emissiya" maqsadiga erishish 2050-yilgacha bo'lgan eng muhim vazifa ekanini, aks holda iqtisodiy tizim chuqur beqarorlikka yuz tutishini ta'kidlaydi. Sternning fikricha, yashil texnologiyalarga investitsiya kiritish nafaqat ekologik xavflarni kamaytiradi, balki yangi ish o'rinlari, bozorlar va innovatsiyalarni yaratib, iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi [3]. U yashil iqtisodiyotni "kelajak farovonligining yagona kafolati" deb baholaydi.

Mariana Mazzucato yashil iqtisodiyotni davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan yangi rivojlanish modeli sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, hukumat ekologik maqsadlarga yo'naltirilgan "missiya-orientirlangan iqtisodiy siyosat"ni shakllantirishi, bozor esa ushbu missiyani amalga oshirish uchun innovatsion yechimlar yaratishi lozim. Mazzucato yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini nafaqat ekologik, balki ijtimoiy adolat, tenglik va texnologik yangilanish bilan uyg'unlashgan kompleks


transformatsiya sifatida ko'radi [4]. U yashil iqtisodiy strategiyalar jamiyatning uzviy rivojlanishiga xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada statistik tahlil, empirik tahlil, hamda solishtirma tahlil usullaridan foydalanildi. Bundan tashqari mahalliy iqtisodchi olimlarni yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan qarashlari qiyosiy tahlil qilib o'rganildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi global sharoitda yashil iqtisodiyotga o'tish muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi ekologiyani yildan yilga yomonlashib borishi dunyo mamlakatlarini xavotirga solmoqda. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tishda mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotiga ta'siri hamda yaratiladigan imkoniyatlar va paydo bo'ladigan tahdidlar tahlil qilib o'rganildi. Quyidagi rasmda orqali yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgarishi ifodalangan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi ko'rsatkichlari (mln. AQSh dollari) [5]

Yuqorida rasmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2025-yilning mart-yanvar oylarida, O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 25 770,5 mln. AQSh dollarini tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davrida 22 199 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti o'sishiga ko'pgina omillar ta'sir qiladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, (YaIM) yildan yilga sezilarli darajada o'smoqda. YaIMni o'sishiga asosiy hissa qo'shadigan sohalar sanoat, qurilish ishlari, qishloq xo'jaligi, bozor xizmatlari hamda aholini real umumiy daromadlari asosiy o'rin egallaydi. So'nggi besh yillik ma'lumotlarni ko'radigan bo'lsak, 2021-yilning mos davrida YaIM hajmi 14 554,0 mln. AQSh dollarni tashkil etgan.

Bugunga kelib bu ko'rsatkich 25 770,5 mln. AQSh dollarni ko'rsatmoqda, bu esa 11 216,5 mlrd. AQSh dollarga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Yashil iqtisodiyotga o'tish mamlakat YaIMga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida ko'plab maqsad va vazifalar belgilab olingan. Ishlab chiqarish korxonalarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi elektr energiya manbalarini ishlab chiqarish quvvatini oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaroda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish hamda ko'chatlar ekib atrof-muhitni yashillashtirish nazarda tutilgan [5].

Bunda sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2024-yilda olti butun o'ndan to'qqiz foiz,


2025-yilda olti butun oʻndan bir foiz, 2026 va 2027-yillarda esa mos ravishda olti butun oʻndan ikki foiz va olti butun oʻndan bir foiz boʻlishi prognoz qilingan. Qishloq xoʻjaligida ishlab chiqarishning oʻsish surʼati 2024–2025-yillarda toʻrt butun oʻndan bir foiz, 2026-yilda toʻrt butun oʻndan ikki foiz, 2027-yilda esa toʻrt butun oʻndan uch foiz etib belgilangan. Bozor xizmatlari sohasida esa 2024-yilda oʻsish surʼati oʻn toʻrt foiz, 2025-yilda oʻn toʻrt butun oʻndan besh foiz, 2026–2027-yillarda esa taxminan oʻn besh foiz atrofida boʻlishi kutilmoqda.

Mazkur koʻrsatkichlar iqtisodiyotning real sektori barqaror oʻsishda davom etayotganini, ishlab chiqarish sohasida mahsulot hajmi kengayayotganini, qishloq xoʻjaligida resurslardan samarali foydalanish, xususan suv tejalayotganini hamda xizmat koʻrsatish sohalarida xizmat sifati yuksalayotganini koʻrsatadi. Prognoz qilingan surʼatlar iqtisodiy tizimning tarkibiy modernizatsiya jarayoni jadallashayotganidan dalolat beradi.

2025-yilning yanvar–mart oylarida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) 8 867,3

ming soʻmni tashkil etgan boʻlib, bu koʻrsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan toʻrt butun oʻndan yetti foizga oshgan. Maʼlumotlarni dinamik tahlil qiladigan boʻlsak, 2021-yilda aholi jon boshiga YaIM 4 415,8 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2022-yilda ushbu koʻrsatkich 5 280,9 ming soʻmga yetib, ikki butun oʻndan toʻqqiz foizga oʻsish kuzatilgan. 2023-yilda YaIM 6 337,9 ming soʻm boʻlgan, 2024-yilda esa 7 508,5 ming soʻmni tashkil etib, toʻrt butun oʻndan ikki foizga oshgan.

Ushbu tendensiyalar shuni koʻrsatadiki, aholi jon boshiga YaIMning yildan-yilga oshib borishi iqtisodiyotning turli tarmoqlari oʻsishiga bevosita bogʻliq. Sanoat, qishloq xoʻjaligi, xizmatlar sohasi va boshqa real sektor yoʻnalishlarining faol kengayishi yalpi iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qilmoqda. Natijada, aholining iqtisodiy farovonligi oʻsib, iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga zamin yaratilmoqda. Mazkur maʼlumotlar quyidagi 2-rasmda oʻz aksini topgan boʻlib, iqtisodiy oʻsishning bosqichma-bosqich surʼatlari grafik tarzda yoritilgan.



2-rasm. Aholi jon boshiga YaIM hajmini oʻsish surʼatlari [5]

2-rasmdan koʻrish mumkinki, birinchi navbatda, YaIMning oʻzi oshsa keyin uning aholi jon boshiga toʻgʻri kelish koʻrsatkichi ham oʻsadi. YaIMni oʻsishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanayotganlik darajasini ham aniqlab

beradi. Koʻrinib turibdiki, soʻnggi besh yil davomida aholi jon boshiga YaIM hajmi deyarli ikki barobarga oshgan, bu esa aholining iqtisodiy farovonligi yaxshilanayotganini anglatadi. Umuman olganda, aholi jon boshiga

YaIMning o'sishi O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotganini, ichki bozor salohiyatining kengayib borayotganini va davlatning iqtisodiy siyosati samarali amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etish barqaror rivojlanish, ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotga o'tish hamma sohalarda shuningdek energetika sohasida ham samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, resurslardan oqilona foydalanish va eksport salohiyatini kengaytirish orqali YaIMning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yashil iqtisodiyotni izchil rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi. Yashil investitsiyalarni rag'batlantirish lozim. Buning uchun ekologik toza texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar taqdim etilishi zarur. Yashil iqtisodiyot bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish muhim. Bu borada aniq, barqaror va amaliy

mexanizmlarni o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish talab etiladi. Malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini kuchaytirish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida ekologik iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va yashil texnologiyalar yo'nalishlari bo'yicha maxsus ta'lim dasturlari joriy qilinishi lozim. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash kerak. Yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni iqtisodiyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. BMT, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik loyihalarni amalga oshirish, xorijiy tajriba va texnologiyalarni mamlakatga jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot O'zbekiston uchun nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sish sifatini yaxshilash va aholining turmush darajasini oshirish yo'lida muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Mazkur sohadagi izchil islohotlar va amaliy choralar O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022-yildagi PQ-436-son.
2. Georgeson L., Maslin M., Poessinouw M. *The global green economy: a review of concepts, definitions, measurement methodologies and their interactions* //Geo: Geography and Environment. – 2017. – T. 4. – №. 1. – P. e00036.
3. Foster J. B., Clark B., York R. *Ecology: The moment of truth-an introduction* //Monthly Review. – 2008. – T. 60. – №. 3. – P. 1.
4. Mazzucato M. *Mission economy: A moonshot guide to changing capitalism*. – Penguin UK, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari - <https://stat.uz/uz/>